



O'SMIRLARDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Sherzod Axmadjonovich Usmonov

Farg'ona davlat universiteti psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

D.H.Meliboyev

Farg'ona davlat universiteti magistranti.

Annotatsiya: *Maqolada axborotning salbiy ta'sirlarining yosh avlodga xususan o'smirlarga va jamiyatimizga salbiy ta'siri haqida so'z boradi. Mafkuraviy siyosiy ziddiyatlar, ommaviy madaniyat axborot xavfli omilini keltirib chiqaruvchi deb qaraladi. Axborot-psixologik xavfsizlikni tadqiq etgan olimlarning izlanishlariga diqqat qaratiladi. O'smirlik davrida axborot-psixologik xavfsizlikni keltirib chiqaruvchi va bartaraf etuvchi omillar yoritildi.*

Kalit so'zlar: *O'smirlik davri, axborot, axborot-psixologik xavfsizlik, milliy axborot siyosati, ijtimoiy ta'sir.*

Har bir davlatning axborot resurslari uning iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Bu resursdan unumli foydalanish mamlakat xavfsizligini va demokratik axborotlashgan jamiyatni muvaffaqiyatli shakllantirilishini ta'minlaydi. Ushbu jamiyatda, ayniqsa, o'smirlar orasida axborot almashinuv tezligi yuksaladi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish bo'yicha ilg'or axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini qo'llash keng ko'lamda amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda tez rivojlanib borayotgan axborot kommunikatsiya texnologiyalari asrida bizning kundalik hayotimizning butun sohalariga muhim ta'sir o'tkazmoqda. Shu bilan bir qatorda axborot almashinuv tezligi axborotlarni ijtimoiy-psixologik xavfsizligi va ularni himoya qilishni dolzarb masalaga aylantirib tobora globallashtirish ahamiyatini kasb etmoqda.

2016-yilning 14- dekabr kuni bo'lib o'tgan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi qanchalik rivoj topgani sari, uning afzalligi va qulayliklaridan foydalanish bilan bir qatorda, butun mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta'minlash eng dolzarb masalaga aylanib bormoqda." deb ta'kidlab o'tgandi.

Keyingi paytlarda axborot xavfsizligi nima va u qanday ta'minlanadi degan savol jamiyat xavfsizligi darajasida dolzarb muammo sifatida yuzaga kelmoqda. Jamiyatda, ayniqsa, yoshlar orasida axborotning psixologik xavfsizligini ta'minlash haqida fikr yuritar ekanmiz eng avvalo axborot xavfsizligi tushunchasini taxlil qilishga to'g'ri keladi.



Axborot xavfsizligi (Information security) inglizcha (infoSec) - axborotni ruxsatsiz kirish, foydalanish, oshkor qilish, buzish, o'zgartirish, taqiq qilish, yozib olish yoki yo'q qilishning oldini olishga qaratilgan amaliyot xisoblanadi. Axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadi ma'lumotlarning konfidensialligini, yaxlitligini va mavjudligining muvozanati hisoblanadi. Bu jarayonni tashkilotlarning faoliyatiga hech qanday zarar yetkazmasdan ximoya qilish kerakligini anglatadi. Davlatning axborot xavfsizligini ta'minlashni muammosi milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy va ajralmas qismidir. Shuningdek, davlatning yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish axborot psixologik xavfsizligini ta'minlash begona g'oyalarga qarshi kurashish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Axborotni himoya qilish esa davlatning birlamchi masalalariga, davlat siyosati darajasiga aylanganligi barchamizga ma'lum. Axborot xavfsizligini ta'minlashda birinchi navbatda tashkilotlarning asosiy vositalari va moddiy aktivlari, taxdid manbalari, zaif tomonlari, potensial ta'sirlar va mavjud xavflarni boshqarish va uning oldini olishga qaratilgan ko'p bosqichli xavfsizlikka tayyorgarligi kiradi. Ushbu faoliyatni standartlashtirish maqsadida ilmiy va kasbiy hamjamiyat texnik axborot psixologik xavfsizligi choralari, yuridik javobgarlik asoslarini, foydalanuvchining imkoniyatlari, axborot xavfsizligi sohasida ma'murlarni tayyorlash metodologiyasini ishlab chiqishi muhim jarayon hisoblanadi. Siyosiy va tarmoq standartlarini ishlab chiqishga qaratilgan doimiy hamkorlik asosida ish olib boriladi.

Axborot xavfsizligini standartlashtirishga asosan quyidagilarni asos qilib olish mumkin. Ma'lumotlarga kirish, qayta ishlash, saqlash va uzatishni tartibga soluvchi keng ko'lamli qonunlar va qoidalarni ishlab chiqish. Axborot xavfsizligini ta'minlashga doir xuquqiy tizimni takomillashtirish. Axborot xavfsizligi orqali jamiyat a'zolari xavfsizligiga oid axborotlarning o'g'irlanishi yoki o'zlashtirilishiga qarshi turish. Jamiyatda turli xil yolg'on axborot va ma'lumotlar tarqalishini oldini olish kabi muhim masalalarni qamrab olishi kerak.

Yoshlarga oid davlat siyosatining qabul qilinganligi va bu huquqiy asos orqali yoshlarni psixologik qo'llab quvvatlash yosh avlodga yetarli ish shart-sharoitlarini ta'minlash kabi ijtimoiy-iqtisodiy masalalar ham ularning kelgusida munosib hayot kechirishlari uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish shu orqali o'smir shaxsiga ta'sir etishning zamonaviy pedagogik-psixologik yutuqlardan foydalanish maqsadga muvofiq keladi.

O'smirlar Internet o'yinlar bozori (IGD) rivojlanishi uchun xavfli populyatsiya sifatida tanilgan. Yaqinda o'tkazilgan klinik model, IGD'li o'smirlarning Internet o'yinlari faoliyatida qat'iy va ortiqcha ishtirok etadigan noyob noqulay e'tiqodlarini tasdiqlashi mumkinligini taklif qildi. Bular quyidagilardir: (a) o'yin mukofotining qiymati va hissiyotiga ishonish, (b) o'yin xatti-harakatlariga mos kelmaydigan va moslashuvchan qoidalar, v) o'z-o'zini hurmat qilish ehtiyojlarini qondirish uchun o'yinlarga haddan ortiq ishonish va (d) o'yinni ijtimoiy qabul qilish.



824 ergenlari (402 erkak va 422 ayol) misoli bir nechta umumta'lim maktablaridan ishga qabul qilindi va IGD simptomatologiyasi, muammoli Internet o'yin bilimlari va psixologik qiyinchiliklarni o'z ichiga olgan so'rov o'tkazdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, IGDga ega bo'lgan o'spirinlar IGD bo'lmagan o'spirinlarga qaraganda, shu jumladan haftasiga 30 soatdan ko'proq vaqt davomida Internet o'yinlarini o'ynaydiganlarga nisbatan ancha yomon moslashuvchan o'yin e'tiqodlari haqida xabar berishdi.

Kuzatilgan ta'sirlar kattaligi katta edi. O'yin o'ynash va IGD belgilari o'rtasidagi kuchli aloqalar o'yin faoliyati va psixologik qayg'u. Ushbu topilmalar IGD'li ergenlerini o'yin haqida turli xil muammoli fikrlarga ega ekanligini ko'rsatib turibdi va bu bilish, kasallikning terapotik aralashuvida muhokama qilish muhimligini ta'kidlaydi

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak. Har bir inson dunyoga kelibdiki uni o'z vazifasi va maqsadi bor va bo'lishi kerak. Hoxish va iroda bo'lsa hamma narsa qo'lingizdan keladi faqatgina diqqat, intizom va harakat bo'lsa bas. Mana shu uchta unsur inson omili deb oladigan bo'lsak shularni birlashtira olsangiz siz dunyoni o'zgartiradigan inson bo'lishingizdan hech kim va hech narsa qaytara olmaydi va siz o'ylagan maqsadingizga erisha olasiz vaholanki, siz bu dunyoga kelishingiz shunchaki emas, siz bu kashfiyot, siz bu yaxshilik, siz bu yuksalish, siz bu adolat va qudrat uchun dunyoga kelgansiz. Har kim o'z menini topishi va uni hurmat qilishi kerak va bunga intilishi kerakki kelajakda yosh avlod sizni ko'rib ibrat olsin, sizni ko'rib adolat nimaligini tushunsin, sizni ko'rib inson qanaday yashash kerakligini tushunib yetsin. Har hil internetdagi soxta adolatparvar insonlarni ko'rib emas. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan mamlakatimizda internet tarmoqlari insonlarga ko'plab imkoniyatlar, qulayliklar yaratib berish bilan bir qatorda, jamiyatimiz yoshlarining g'oyaviy, axloqiy me'yorlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ayni davrda internet tarmoqlari yoshlar hayotini izdan chiqarib yuborishga qodir kuchli qurolga aylanib ulgurdi. Bu tarmoqlar yoshlar orasida qanchalik ko'p o'z o'rniga ega bo'lgan sari, ularning xavfi ham ikki barobar oshmoqda. Yosh avlodning deyarli 70-80% global tarmoqning asiriga aylanib qolgan. Ular shu darajada internetga bog'lanishdiki, xatto tongni u bilan qarshilab kunni u bilan kuzatayotganlarini o'zlari ham sezmay qolishdi. Internet tarmog'lari yoshlarning dunyoqarashini, fikrini o'zgartirib yubordi. Bu olamga g'arq bo'lgan yoshlarning deyarli ko'pchiligida insoniylik, mehr-oqibat, tuyg'ulari, muomala ma'daniyati kamayib bormoqda. Masalan jamoat transportida telefonidan ko'zini uzmay kelayotgan bola u yerdagi axloq qoidalarini ham unutib qo'yimoqda. Yaqinlariga, ota-onasiga ham internetga ajratganchalik ko'p vaqt ajratmay qo'yayotganini o'zi ham sezmay qolmoqda. Internet bu kabi yoshlar vaqtining ham eng katta dushmani hisoblanadi. Bu "sun'iy olam" ga bog'lanib qolib hayotimizning eng muhim davrlarini o'tkazib yuborayotgan va nimanidir qo'ldan boy berayotgan bo'lishimiz mumkin. Bir kun internetdan foydalanmasak kunimiz qanchalik unumli bo'lganini sezamiz. Shunday ekan, internet



asiriga aylanmasdan uning girdoblarida umrimizni zoye ketkazmasdan undan o'zimizni himoya qilishimiz lozim.

Har bir irodasi mustahkam yosh avlod vaqtini o'zining eng qimmatbaho boyligi ekanligini anglaydi va uni kimga va nimaga sarflashini juda yaxshi biladi. Ularda internetning turli xurujlariga qarshi kurashish immuniteti mavjud bo'ladi. Bu bilan ijtimoiy tarmoqlardan umuman foydalanmaslik emas, balki undan me'yor bilan foydalanish kerak. Ular hayotimizda birinchi o'rinda emas, oxirgi o'rinlardan joy olsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Zero, bizga berilgan umrni samarali sarflash har birimizning o'z qo'limizda. "Har qanday davlatning yoshlari o'z oldiga qo'yayotgan maqsadiga qarab, shu davlatning kelajagini bilish va belgilashi mumkin".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmadjonovich, U. S. (2022, December). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGIC FACTORS INFLUENCING STUDENTS'LEARNING ABILITY. In *Conference Zone* (pp. 767-774).
2. Axmadjonovich, U. S., & Mirzaolim o'g'li, M. J. (2022, December). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF STUDENTS. In *Conference Zone* (pp. 775-780).
3. Axmadjonovich, U. S., & Mirzamirovna, M. C. (2022). SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF FORMING POSITIVE ATTITUDES IN STUDENTS OF JUNIOR SCHOOL AGE. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 11, 341-344.
4. Axmadjonovich, U. S., & Ilhomjon o'g'li, N. I. (2022). THE INFLUENCE OF MASS MEDIA ON HUMAN PSYCHOLOGY. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 11, 345-348.
5. Usmonov, A. (2021). БОЛА ТАРБИЯСИДА ДОНОЛАР УГИТИ ВА ИКМАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar*, 2(Архив№ 3).
6. Axmadjonovich, U. S., & Murodjon To'liqinjon o'g, A. (2022). PRACTICAL OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN STUDENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(7), 180-183.
7. Axmadjonovich, U. S. (2022). AN EMPIRICAL STUDY OF THE EFFECT OF MENTAL ABILITIES ON STUDENT ACHIEVEMENT. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 2(12), 125-132.
8. Axmadjonovich, U. S. Khakimova Ugilkhon Nasimhon qizi.(2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL BASIS FOR THE MANIFESTATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 3(6), 65-67.
9. Usmonov, S., & Tojimatov, J. (2022). O'QUVCHI YOSHLARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(7), 139-143.



10. Axmadjonovich, U. S. (2022). Empirical analysis of the impact of sociopsychological factors on mastery indicators in students. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 3(2), 5-11.

11. Усмонов, Ш. А. (2022). ТАЛАБАЛАРДАГИ АҚЛИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИ ЕТАКЧИ СИГНАЛЛАР ТИЗИМИГА БОҒЛИҚЛИгини ўрганилиши: Усмонов Шерзод Ахмаджонович, Фарғона давлат университети, Психология кафедраси ўқитувчиси. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (7), 328-333.

12. Усмонов, Ш. А., Закирова, М. С., & Нуриддинов, Р. С. ў. (2021). ИЛК ўСПИРИНЛИК ДАВРИДА АҚЛИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИНГ ЭМПИРИК ТАҲЛИЛИ. *Современное образование (Узбекистан)*, (9 (106)), 12-16.

13. Усмонов, Ш. А. (2021). Закирова Мухаббат Сабировна, Нуриддинов Расулжон Самитжон ўғли. *ИЛК ўСПИРИНЛИК ДАВРИДА АҚЛИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИНГ ЭМПИРИК ТАҲЛИЛИ//СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН)*, 9, 106.

14. Usmonov, S. A., & Xoldaraliyeva, A. A. Q. (2021). Talaba yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashning psixologik tamoillari. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 73-77.

15. Усмонов, Ш. А., & Закирова, М. С. (2021). Нуриддинов РСў ИЛК ўСПИРИНЛИК ДАВРИДА АҚЛИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИНГ ЭМПИРИК ТАҲЛИЛИ. *Современное образование (Узбекистан).-2021*, 9(106), 12-16.

16. Usmanov, S., & Absalomov, E. U. (2020). IMPROVEMENT OF TOLERANT CULTURE IN THE FAMILY. *Theoretical & Applied Science*, (1), 674-676.

17. Usmonov, S. A. (2020). Problems and solutions with working ability children. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 177-179).

18. Usmonov, S. A. (2020). Opportunities with working ability children in education. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 298-300).

19. Усмонов, Ш. А. (2015). Развитие толерантной культуры у учащейся молодежи. In *Актуальные аспекты современной науки* (pp. 9-12).

20. Ugli, O. A. D. (2021). THE HISTORY AND ROLE OF ISLAM AND PSYCHOLOGY IN THE EDUCATION SYSTEM IN CENTRAL ASIA. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(4), 279-277.

21. Ostanaqulov, A. (2023). OILA VA OILAVIY MUNOSABATLARDA ETNIK TA'SIRLARNING ROLI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(6), 197-199.

22. Ergasheva, G. (2023). THE STATE OF STUDYING THE PROBLEM OF DESTRUCTIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENCE. *Gospodarka i Innowacje.*, 33, 159-163.



23. Gulomjonovna, T. G. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE ORIGIN OF DESTRUCTIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(12), 215-222.

24. Ostanaqulov, A., Mo'minov, D., & Nuriddinov, R. (2023). MODDIY YOKI O'ZGA MANFAATDORLIK TUFAYLI OILA QURISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(20), 821-825.

25. Ostanaqulov, A. (2023). O 'SMIRLAR RUHIY SALOMATLIGINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(20), 486-491.

26. Alijon, O. (2023). STUDY OF SUICIDAL CASES IN THE PERIOD OF ADOLESCENCE IN FOREIGN COUNTRIES. *Scientific Impulse*, 1(10), 636-641.

27. Mo'minov, D., Nuriddinov, R., & Ostanaqulov, A. (2023). BADIY ASARLARDA PSIXOLOGIK MANIPULYATSIYANING O'RNI VA AHAMIYATI (LEV TOLSTOYNING "TIRILISH" ASARI MISOLIDA). *Scientific Impulse*, 1(10), 618-624.

28. Nuriddinov, R., Mo'minov, D., & Ostanaqulov, A. (2023). BO 'LAJAK PEDAGOGLAR RUHIY SALOMATLIGINI TAMINLASHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI. *Scientific Impulse*, 1(10), 612-617.